

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XITOIY TILIDAGI 才 (cái) VA 就 (jiù) SEMANTIKASIDA SUBYEKTIV KICHIK MIQDOR VA SUBYEKTIV KATTA MIQDOR IFODASI

Bobonorov Abdurauf Abdumuminovich

Samarqand davlat chet tillar instituti, tayanch doktorant.

e-mail: Bobonorovabdurauf@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-4146-8463>

Annotatsiya.

Maqolada xitoy tilidagi 才 (cái) va 就 (jiù) elementlarining subyektiv miqdor ifodalash vazifasi tahlil qilinadi. Chen Xiaohe kiritgan subyektiv miqdor (主观量) kategoriyasiga ko'ra, miqdor obyektiv qiymatidan tashqari, so'zlovchining uni normadan ko'p yoki kam deb baholashini ham ifodalashi mumkin. Tadqiqotda ko'rsatilishicha, 才 asosan subyektiv kichik miqdorni (miqdor kutilgandan kam), o'rin va konstruksiyaga qarab esa subyektiv katta miqdorni (talab qilingan miqdor kutilgandan ko'p) ifodalaydi; 就 esa yetarlilik qurilmasida subyektiv kichik, «yengil erishilgan katta natija» qurilmasida esa subyektiv katta miqdorni bildiradi. Har ikki elementda ham asosiy mexanizm — haqiqiy miqdorni kutilgan miqdorga nisbatan joylashtirish. Xulosalar o'zbek tiliga tarjima ekvivalentligi bilan bog'lanadi.

Kalit so'zlar: subyektiv miqdor, subyektiv kichik miqdor, subyektiv katta miqdor, obyektiv miqdor, funksional element, so'zlovchi bahosi, kutilma, tarjima ekvivalentligi.

ВЫРАЖЕНИЕ СУБЪЕКТИВНО МАЛОГО И СУБЪЕКТИВНО БОЛЬШОГО КОЛИЧЕСТВА В СЕМАНТИКЕ 才 (CÁI) И 就 (JIÙ) В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Бобоноров Абдурауф Абдумуминович

Самаркандский государственный институт иностранных языков, базовый докторант.

Аннотация.

В статье анализируется функция выражения субъективного количества у элементов 才 (cái) и 就 (jiù) китайского языка. Согласно категории субъективного количества (主观量), введенной Чэнь Сяохэ, помимо объективного значения количества может выражаться и оценка говорящим этого количества как большего или меньшего относительно нормы. Показано, что 才 преимущественно выражает субъективно малое количество (количество меньше ожидаемого), а в зависимости от позиции и конструкции — и субъективно большое; 就 в конструкции достаточности выражает субъективно малое, а в конструкции «лёгкого достижения большого результата» — субъективно большое количество. В обоих случаях основной механизм — размещение реального количества относительно ожидаемого. Выводы соотносятся с переводческой эквивалентностью при передаче на узбекский язык.

Ключевые слова: субъективное количество, субъективно малое количество, субъективно большое количество, объективное количество, функциональный элемент, оценка говорящего, ожидание, переводческая эквивалентность.

THE EXPRESSION OF SUBJECTIVE SMALL QUANTITY AND SUBJECTIVE LARGE QUANTITY IN THE SEMANTICS OF 才 (CÁI) AND 就 (JIÙ) IN CHINESE

Bobonorov Abdurauf Abdumuminovich

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article analyses the subjective-quantity function of the Mandarin elements 才 (cái) and 就 (jiù). According to the category of subjective quantity (主观量) introduced by Chen Xiaohe, beyond the objective value of a quantity a speaker may also express an evaluation of it as greater or smaller than a norm. It is shown that 才 chiefly expresses subjectively small quantity (a quantity below expectation) and, depending on position

and construction, also subjectively large quantity; 就 expresses subjectively small quantity in the sufficiency construction and subjectively large quantity in the «large result easily achieved» construction. In both cases the underlying mechanism is the positioning of the actual quantity relative to the expected one. The findings are related to translation equivalence into Uzbek.

Keywords: subjective quantity, subjectively small quantity, subjectively large quantity, objective quantity, functional element, speaker evaluation, expectation, translation equivalence.

Kirish

Miqdor kategoriyasi insonning borliqni anglash, undagi predmet, hodisa va jarayonlarni o'lchash, sanash hamda o'zaro qiyoslash faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan universal lingvistik kategoriyalardan biridir. Inson voqelikdagi predmetlarning sonini, hajmini, darajasini, davomiyligini yoki takrorlanish miqdorini nafaqat obyektiv tarzda qayd etadi, balki ularni muayyan me'yor, ehtiyoj, kutilma va kommunikativ vaziyat nuqtayi nazaridan baholaydi. Shu sababli miqdor tushunchasi tilda faqat matematik yoki aniq son ko'rsatkichlarini ifodalovchi vosita sifatida emas, balki so'zlovchining borliqqa munosabatini namoyon etuvchi semantik-pragmatik hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Miqdor ifodasi tilda o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qatlamga ega: obyektiv miqdor va subyektiv miqdor. Obyektiv miqdor voqelikdagi predmet yoki hodisalarning haqiqiy soni, hajmi, o'lchovi, darajasi va davomiyligi haqidagi nisbatan xolis axborotni ifodalaydi. Subyektiv miqdor esa so'zlovchining ayni miqdorni muayyan norma, ehtiyoj yoki kutilmaga nisbatan ko'p, kam, yetarli, ortiqcha yoxud chegaralangan deb baholashini aks ettiradi [9; 18]. Demak, obyektiv miqdor miqdoriy ko'rsatkichning o'zini anglatadi, subyektiv miqdor ana shu ko'rsatkichning kommunikativ vaziyatdagi talqinini yuzaga chiqaradi.

Masalan, «uch kishi keldi» gapida voqelikdagi ishtirokchilar soni xolis ravishda qayd etilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor miqdorning aniq ko'rsatkichiga qaratiladi. «Bor-yo'g'i uch kishi keldi» gapida esa aynan shu uch soni so'zlovchi tomonidan kutilgan yoki zarur deb hisoblangan miqdordan kam sifatida baholanadi. Aksincha, «naq uch kishi keldi» yoki «uch kishining o'zi keldi» kabi tuzilmalarda vaziyatga qarab ushbu miqdorning kutilmaganligi, yetarliligi yoki alohida ta'kidlanishi ifodalanishi mumkin. Shunday qilib, bir xil obyektiv miqdor turli nutqiy sharoitlarda turlicha subyektiv mazmun kasb etadi. Bu holat subyektiv miqdorning tayyor va o'zgarmas ko'rsatkich emasligini, balki kontekst, so'zlovchining maqsadi hamda kommunikativ ishtirokchilarning umumiy bilimlari asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Xitoy tilida subyektiv miqdorni ifodalovchi eng muhim funksional elementlar — 才 (*cái*) va 就 (*jiù*). Chen Xiaohu subyektiv miqdor tushunchasini kiritganida aynan shu ikki ravish (hamda 都)ni asosiy misol qilib olgan edi [9; 20]. Keyingi tadqiqotlar bu birliklarning subyektiv miqdor ifodalashdagi vazifasini batafsil o'rgandi [13; 111–170].

Maqolaning maqsadi — 才 va 就 ning subyektiv kichik miqdor hamda subyektiv katta miqdor ifodalash vazifalarini qiyosiy tavsiflash, ularni yuzaga chiqaruvchi konstruksiyalarni aniqlash va bu farqlarning o'zbek tiliga tarjimada aks etishini ko'rsatishdir.

1. Subyektiv miqdor kategoriyasi. Subyektiv miqdor — tarkibida subyektiv baho ma'nosi bo'lgan miqdor bo'lib, u obyektiv miqdorga qarama-qarshi qo'yiladi [9; 18]. Li Yuming ko'rsatganidek, xitoy tilida subyektiv miqdor ravishlar, gap oxiri birliklari, son-miqdor so'zlari va turg'un qoliplar orqali ifodalanadi [13; 112]. Subyektiv miqdor ikki qutbga ega: **subyektiv katta miqdor** (主观大量) — miqdor normadan ko'p deb baholanadi; **subyektiv kichik miqdor** (主观小量) — miqdor normadan kam deb baholanadi.

Muhim jihat shundaki, bir xil obyektiv miqdor turli subyektiv baho olishi mumkin. Quyidagi uch gapda «uch kishi» soni bir xil, ammo baho har xil:

来了三个人。(lái le sān gè rén)

«Uch kishi keldi. (neytral, obyektiv miqdor).»

才来了三个人。(cái lái le sān gè rén)

«Bor-yo'g'i uch kishi keldi. (subyektiv kichik miqdor).»

三个人就够了。(sān gè rén jiù gòu le)

«Uch kishining o'zi kifoya. (subyektiv kichik miqdor).»

Demak, 才 va 就 obyektiv miqdorni o'zgartirmaydi, balki unga so'zlovchining subyektiv bahosini qo'shadi. Quyida har bir elementning subyektiv kichik va subyektiv katta miqdor ifodalash imkoniyatlari alohida ko'rib chiqiladi.

2. 才 (*cái*) ning subyektiv miqdor ifodasi

2.1. Subyektiv kichik miqdor. 才 ning eng xarakterli vazifasi — subyektiv kichik miqdorni ifodalash. 才 son-miqdor so'zidan oldin kelganda, u miqdorni kutilgandan kam deb baholaydi va «bor-yo'g'i», «atigi» ma'nosini beradi [15; 60]:

他才十八岁。(tā cái shí bā suì)

«U bor-yo'g'i o'n sakkiz yoshda.»

我才吃了一碗。(wǒ cái chī le yì wǎn)

«Men atigi bir kosa yedim.»

现在才三点。(xiànzài cái sān diǎn)

«Hozir endigina soat uch. (vaqt kam o'tgan).»

Bu qo'llanishlarda so'zlovchi miqdorning kamligini, ko'proq bo'lishini kutgan bo'lsa-da, natija kutilgandan past chiqqanini ta'kidlaydi. Shuning uchun 才 + son qurilmasi doimo salbiy yoki «yetishmovchilik» konnotatsiyasini oladi [16; 124].

2.2. Subyektiv katta miqdor. Son-miqdor so'zi 才 dan oldin kelib, gap «yetarlilik» yoki «natijaga erishish» chegarasini bildirsa, 才, aksincha, subyektiv katta miqdorni ifodalaydi: belgilangan natija uchun kutilgandan ko'proq vosita, vaqt yoki takror talab qilinganini ko'rsatadi [11; 145]:

三个人才够。(sān gè rén cái gòu)

«Uch kishi bo'lgandagina (endigina) yetadi.»

说了三遍他才懂。(shuō le sān biàn tā cái dǒng)

«Uch marta aytilgandan keyingina u tushundi.»

等了两个小时他才来。(děng le liǎng gè xiǎoshí tā cái lái)

«Ikki soat kutilgandan keyin u zo'rg'a keldi.»

Bu holatda «uch marta», «ikki soat» kabi miqdorlar so'zlovchi nazarida ko'p — kutilganidan ortiq. Demak, 才 ning subyektiv miqdor qutbi qat'iy emas: u sondan oldin turganda kichik miqdorni, sondan keyin (yetarlilik qolipida) turganda katta miqdorni belgilaydi [11; 146].

3. 就 (jiù) ning subyektiv miqdor ifodasi

3.1. Subyektiv kichik miqdor. 就 yetarlilik qurilmasida (son + 就 + 够/V+了) subyektiv kichik miqdorni ifodalaydi: kam vosita bilan natijaga erishilganini, so'zlovchi kutganidan kamroq miqdor kifoya qilganini bildiradi [9; 21]:

一个就够了。(yí gè jiù gòu le)

«Bittasining o'zi kifoya.»

五块钱就买到了。(wǔ kuài qián jiù mǎi dào le)

«Atigi besh yuanga sotib oldim.»

三点就到了。(sān diǎn jiù dào le)

«Soat uchdayoq yetib keldim. (erta).»

Bu qurilmada 就 va 才 bir-biriga yaqinlashadi — ikkalasi ham kam miqdorni bildiradi, ammo baho qutbi qarama-qarshi: 就 «kam bo'lsa-da yetarli» (ijobiy), 才 esa «kam va yetishmaydi» (salbiy) [16; 126].

3.2. Subyektiv katta miqdor

就 «kam shart bilan katta natijaga erishish» qurilmasida (kam vaqt/kam vosita + 就 + V + katta son) subyektiv katta miqdorni ifodalaydi: natija so'zlovchi nazarida ko'p — kutilgandan ortiq va oson erishilgan deb baholanadi [12]:

他一天就赚了一万。(tā yì tiān jiù zhuàn le yí wàn)

«U bir kunning o'zida o'n ming (yuan) topdi.»

我一个人就吃了三碗。(wǒ yí gè rén jiù chī le sān wǎn)

«Men yolg'iz o'zim uch kosa yedim.»

一节课就学了五十个词。(yì jié kè jiù xué le wǔshí gè cí)

«Bir darsning o'zida ellikta so'z o'rganildi.»

Bu yerda «bir kun», «bir kishi», «bir dars» kabi kichik shart bilan «o'n ming», «uch kosa», «ellik so'z» kabi katta natijaga erishilgani ta'kidlanadi. Shu bois 就 ham ikki qutbli: yetarlilik qolipida subyektiv kichik, «yengil katta natija» qolipida esa subyektiv katta miqdorni ifodalaydi [12], [16; 128].

4. Qiyosiy tahlil. Yuqoridagi tahlil 才 va 就 ning subyektiv miqdor ifodasida yagona mexanizmga — haqiqiy miqdorni kutilgan miqdorga nisbatan joylashtirishga tayanishini ko'rsatadi. Fauconnier ta'riflagan pragmatik skala bu joylashuvni izohlaydi: so'zlovchi miqdorni skalada kutilgan nuqtadan yuqori yoki past deb belgilaydi [3; 356]. Farq esa konstruksiya va baho qutbida namoyon bo'ladi. Quyidagi jadval to'rt asosiy holatni umumlashtiradi.

1-jadval. 才 va 就 ning subyektiv miqdor ifodalash qurilmalari

Element	Subyektiv miqdor	Konstruksiya	Baho / misol
才 (cái)	kichik miqdor	才 + son	kamlilik (salbiy): 才十八岁
才 (cái)	katta miqdor	son + 才 (yetarlilik)	ko'p talab: 三个人才够
就 (jiù)	kichik miqdor	son + 就 + 够	yetarli (ijobiy): 一个就够了

Element	Subyektiv miqdor	Konstruksiya	Baho / misol
就 (jiù)	katta miqdor	kam shart + 就 + katta son	yengil katta natija: 一天就赚了一万

Jadvaldan ko'rinadiki, ikkala element ham subyektiv kichik va subyektiv katta miqdorni ifodalay oladi, ammo ularning asosiy moyilligi qarama-qarshi: 才 birlamchi tarzda kichik miqdorga (kamlik, yetishmovchilik), 就 esa ko'pincha katta miqdorga yoki oson yetarlilikka moyil [11; 148].

5. O'zbek tiliga tarjima ekvivalentlari. O'zbek tilida subyektiv miqdor alohida grammatik shakl bilan emas, balki leksik va morfologik vositalar orqali ifodalanadi. 才 ning subyektiv kichik miqdori «bor-yo'g'i», «atigi», «-gina», «endigina» birliklari bilan beriladi: 他才十八岁 → «U bor-yo'g'i o'n sakkiz yoshda». 才 ning subyektiv katta miqdori «zo'rg'a», «...gandan keyingina» qoliplari bilan ifodalanadi: 说了三遍他才懂 → «Uch marta aytilgandan keyingina tushundi».

就 ning subyektiv kichik miqdori «...ning o'zi kifoya», «atigi ... yetadi» bilan beriladi: 一个就够了 → «Bittasining o'zi kifoya». 就 ning subyektiv katta miqdori esa «...ning o'zida», «hatto ... ham» kabi ta'kid vositalari bilan ifodalanadi: 他一天就赚了一万 → «U bir kunning o'zida o'n ming topdi». O'zbek tilida «hatto», «-ning o'zida» katta miqdor, «-gina», «bor-yo'g'i» esa kichik miqdor markerlari sifatida xizmat qiladi.

Tarjima pragmatikasi nuqtai nazaridan asosiy vazifa — obyektiv sonni emas, balki subyektiv baho komponentini saqlashdir. Nida ta'kidlaganidek, ekvivalentlik dinamik bo'lishi, matnning retseptorga ta'sirini qayta yaratishi lozim [5; 159]. Bu komponent tushib qolsa, Thomas ko'rsatgan pragmatik xato yuzaga keladi — son to'g'ri, ammo so'zlovchining bahosi yo'qoladi [6; 94]. Komissarovning ekvivalentlik darajalari bu muvozanatni ta'minlashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [8; 51].

Xulosa. Subyektiv miqdor nuqtai nazaridan qilingan tahlil xitoy tilidagi 才 va 就 elementlari nafaqat obyektiv miqdorni, balki so'zlovchining unga nisbatan bahosini ham ifodalashini ko'rsatadi. 才 birlamchi tarzda subyektiv kichik miqdorni (kamlik, yetishmovchilik) ifodalaydi, yetarlilik qurilmasida esa subyektiv katta miqdorni bildiradi. 就 yetarlilik qurilmasida subyektiv kichik, «yengil katta natija» qurilmasida esa subyektiv katta miqdorni ifodalaydi. Har ikki holatda ham yagona mexanizm — haqiqiy miqdorni kutilgan miqdorga nisbatan joylashtirish — amal qiladi. Bu xulosalar xitoy tilini o'qitishda va xitoycha-o'zbekcha tarjima amaliyotida subyektiv baho komponentini to'g'ri yetkazish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. *O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis)*. – Toshkent: Fan, 1991. – 415 b.
2. Biq Yung-O. *The Semantics and Pragmatics of cai and jiu in Mandarin Chinese*: PhD Dissertation. – Ithaca: Cornell University, 1984. – 173 p.
3. Fauconnier G. Pragmatic Scales and Logical Structure // *Linguistic Inquiry*. – 1975. – Vol. 6. – No. 3. – P. 353–375.
4. Lai Huei-ling. Rejected Expectations: The Scalar Particles *cai* and *jiu* in Mandarin Chinese // *Linguistics*. – 1999. – Vol. 37. – No. 4. – P. 625–661.
5. Nida E. A. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
6. Thomas J. Cross-Cultural Pragmatic Failure // *Applied Linguistics*. – 1983. – Vol. 4. – No. 2. – P. 91–112.
7. Бархударов Л. С. *Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода*. – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.
8. Комиссаров В. Н. *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
9. 陈小荷. 主观量问题初探——兼谈副词“就”“才”“都” // *世界汉语教学*. – 1994. – 第4期. – 页18–24.
10. 胡建刚. 主观量度和“才”“都”“了2”的句法匹配模式分析 // *世界汉语教学*. – 2007. – 第1期. – 页72–81.
11. 金立鑫, 杜佳俊. “就”与“才”主观量对比研究 // *语言科学*. – 2014. – 第13卷. – 第2期. – 页140–153.
12. 李宇明. “-V...数量”结构及其主观大量问题 // *汉语学习*. – 1999. – 第4期.
13. 李宇明. *汉语量范畴研究*. – 武汉: 华中师范大学出版社, 2000. – 320 页.
14. 吕叔湘. *现代汉语八百词* (增订本). – 北京: 商务印书馆, 1999. – 760 页.
15. 王群力. 略说汉语主观量——以副词“才”“就”为例 // *辽宁大学学报 (哲学社会科学版)*. – 2005. – 第33卷. – 第2期. – 页59–62.
16. 周守晋. “主观量”的语义信息特征与“就”“才”的语义 // *北京大学学报 (哲学社会科学版)*. – 2004. – 第41卷. – 第3期. – 页121–131.